

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiychilarining
mediakompetentligini rivojlantirish mazmuni**

JDPI maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedra dots.v/b G.Kushakova

2-kurs magistri Sarimsoqova Muxayyo

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiychilarining mediakompetentligini rivojlantirish mazmuni haqida fikrlar bayon qilingan.

Аннотация: В статье рассматривается содержание развития медиакompetентности педагогов в дошкольном образовании.

Annotation: This article discusses the content of the development of media competence of educators in preschool education.

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, tashkilot, tarbiychilar mediakompetentlik, rivojlantirish, mazmun, fikr.

Ключевые слова: дошкольное образование, организация, медиакompetентность педагога, развитие, содержание, мнение.

Keywords: preschool education, organization, educators media competence, development, content, opinion.

Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan, biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Dunyoda mediakompetentlikning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YuNESKO tashkilotining tavsiyalarida alohida ta'kidlanib, pedagoglarni mediakompetentligini rivojlanishini qo'llab-quvvatlangan. Mediakompetentlik umumiy ko'rinishda shaxsning turli ko'rinishi, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sositumda medianing faoliyati murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiychilarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi ilm oldida turgan

dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta'lim, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi yanada takomillashtirildi, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab va kollejlarda o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash yo'lida 11 yillik ta'lim tizimiga o'tildi, ta'lim mazmunini yangilash hamda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikasiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish samaradorligiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyachining mediakompetentligi uning kasbiy kompetentligining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki nafaqat maxsus bilimlarga ega bo'lgan, balki belgilangan yo'nalish doirasida faoliyatni amalga oshirishning barcha usullaridan pedagogik faoliyatni amalga oshirishi va axborot hamda telekommunikasiya texnologiyalarini organik ravishda rivojlantirishda o'z ko'nikmalarini takomillashtirishi kerak.

Mediata'lim tarbiyachilarga mediamadaniyat olamida moslashishga, ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirishga, mediamatnni tahlil qila olishga va shu kabilarga yordam berishi lozim.

Pedagogika fanida tarqalgan asosiy mediata'lim modellari ko'p jihatlarga egadir. Umuman olganda, ularni quyidagicha tartibda tasniflash mumkin bo'ladi:

- o'z ichiga media nazariyasi va amaliyotining o'rganilishini oladigan ta'limiy-axborotli modellar;

- mediamadaniyatning axloqiy va falsafiy muammolarini ko'rib chiqadigan tarbiyaviy-estetik modellar;

- o'quvchilar va tarbiyachilarning ijodkorligi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va shu kabilarning rivojlantirilishini ko'zda tutadigan rivojlantiruvchi o'qitish modellari.

Milliy mediata'lim modellarining o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda ular umumdidaktik tamoyillarga (shaxsning har tomonlama rivojlanishi, nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi, tizimlilik va shu kabilar) va mediamadaniyatning o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'ladigan tamoyillarga (audio-vizual anglashning, mediamatnlarni tahlil qila olish mahoratining va shu kabilarning rivojlanishiga) rioya qiladi.

Mediata'limning oyoqqa turishi yo'lida Ye.I.Xudoleyeva o'zining ilmiy tadqiqotida quyidagi pedagogik muammolarni ajratib ko'rsatadi:

- pedagoglarning ichki psixologik muammolari, yangi texnika va texnologiyalar oldidagi qo'rquv;

- o'z kasbiy faoliyatida yangi texnikalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish uchun urinib ko'rishni va qo'shimcha kuch sarflashni xohlamaslik;

- jamiyatdagi axborot rivojlanishining yetarli bo'lmagan darajasi;

- ko'plab ijtimoiy guruhlar uchun elektron axborot vositalariga ega bo'lolmaslik;

- pedagoglarda mediaviy kompetentlilikning yetarlicha rivojlanmaganligi;

- pedagoglarning kasbiy tayyorgarlikdan o'tishni xohalmasliklari va bunga imkoniyatlari yo'qligi;

- pedagoglar va ta'lim oluvchilar uchun kompyuter texnikasiga erkin kira olish imkoniyatining yo'qligi;

- pedagoglarning bo'sh motivasiyasi;

- keng pedagogik jamoatchilik uchun “mediata’lim” tushunchasining noma’lumligi;

- mediata’lim nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish bo’yicha maqsadga qaratilgan va tizimli davlat siyosatining mavjud emasligi.

Ye.I.Xudoleyeva ta’kidlab o’tgan muammolarning ko’pchiligi umuman olganda O’zbekistondagi bugungi kunlarda mavjud bo’lgan zamonaviy ta’lim jarayoniga ham xosdir.

Zamonaviy adabiyotlarda texnika bizning ixtiyorimizda bo’ladi, shuning uchun bizlar odam sifatida *kommunikativ kompetensiyaga* ega bo’lamiz. Ya’ni, odamlar nafaqat, masalan, tasvirni rasshifrovkalay olishlari, ular balki yana nimalarnidir “mana shunga bog’liq holda o’ylab ko’rishlari” mumkin va bu tushunish jarayonlarin belgilab beradi - kompetensiya aynan mana shuni ko’zda tutadi. Bu yerda gap nafaqat yangi texnikani o’zlashtirish haqida boradi; mazkur texnik-amaliy ko’nikmalar kishilaring biron narsa ustida fikr yuritishlari, tanqidiy dalillarni shakllantirishlari va o’qish yordamida lazzat olishga qobillikka erishish bilan bog’liq bo’ladi. Umuman olganda, tarbiyachining kasbiy mahoratini anglash, avvalo, uning faoliyati bilan bog’liq bo’lib, tarbiyachining kasbiy mahoratining «poydevorini» tashkil etadigan zarur kasbiy bilim va ko’nikmalarga asoslangan muayyan kasbiy harakatlarni bajarish qobiliyati bilan bog’liqdir.

Shunday qilib, «kompetentlik» tushunchasi ta’rifiga turli xil yondashuvlar ushbu atamani an’anaviy tushunishdan tashqariga chiqmaydi, faqat bir-birini to’ldiradi va o’zaro boyitadi.

Demak, umumiy pedagogik jihatdan kompetentlik - bu bilimlarga ega bo’lish deganini emas, faoliyat usuliga ega bo’lishni anglatadi; kompetentlik har doim ma’lum bir faoliyatda o’zini namoyon qiladi (hozirgi holda, professional); kompetentlik har doim ma’lum bir shaxsiy fazilatlar bilan «bezalgan» bo’ladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Babadjonov S.S. Multimedia texnologiyalari. – T.: Elektron Ta’lim Resursi, 2017.

2. Nikitina Ye. Yu., Milyutina A. A. Formirovaniye mediakompetensii mladshix shkolnikov na urokax russkogo yazyka. Monografiya. – M., 2015 yil
3. Inoyatov U. I. Xalq ta'limi tizimida mediata'limni tashkil etish va rivojlantirish. Globallashuv sharoitida yoshlarni mediasavodxonligini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. (Birinchi kitob) Namangan, 2015. 5-7 b.
4. Kushakova. G, O'quvchi yoshlarda tolerantlik tafakkurni shakllantirish metodikasi , Arxiv Nauchnyx Publikasii JSPI: 2020: Arxiv №23 (science.i-edu.uz, jspi.uz)
5. Kushakova. G, Maktabdagi yoshdagi bolalarni tolerantlik ruxida tarbiyalash , Arxiv Nauchnyx Publikasii JSPI: 2020: Arxiv №58 (science.i-edu.uz, jspi.uz)